

PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA MULOQOTNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Usmanov Esanbay Shirmatovich

*Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası,
dotsent v.b.psixologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pedagogik faoliyat jarayonini samarali tashkil etishda va ta’lim-tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli amalga oshirishda muloqotning psixologik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi to’g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Pedagogik muloqot, muloqotning psixologik xususiyatlari, Verbal aloqa, Noverbal aloqa, Empatiya, Motivatsiya, Refleksiya.

Respublikamizda ta’lim sohasini rivojlantirish, kelgusida raqobatbardosh, yetuk bilim va salohiyatga ega bo’lgan kadrlarni yetishtirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ta’lim sifatini oshirish bo’yicha maqsadlar quyidagicha belgilab berilgan, masalan: 44-maqсад “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish”, 46-maqсад “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish”, 47-maqсад “2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE (dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalarining sifatini, ilmiy salohiyatini va global tan olinganligini baholashga xizmat qiluvchi xalqaro reyting tizimlari) reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash”(1) deb nomlanib, ta’lim muassasalari va ta’lim sifatini oshirishga, respublikamizni rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish maqsadida qator vazifalar belgilab qo’yilgan.

Pedagogik faoliyat jarayonida muloqotning psixologik xususiyatlari o’quvchilar va o’qituvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni muvoffaqiyatli shakllantirish uchun juda muhim. Mazkur jarayonda bir qator psixologik xususiyatlar namoyon bo’ladi:

1.O’zaro ta’sir va aloqa- Verbal aloqa: Muloqot so’zlar orqali amalga oshadi, u orqali o’quvchilarga bilim yetkaziladi va ularning savollari qabul qilinadi.Noverbal aloqa: Jismoniy harakatlar, mimika, ovoz intonatsiyasi va ko’z-qarash orqali ma’lumot uzatiladi, bu o’quvchilar his-tuyg’ularini tushunishga yordam beradi.

2.Empatiya (boshqalarni tushunish)-Pedagogning o’quvchilar his-tuyg’ularini, ehtiyojlarini va psixologik holatlarini tushunish qobiliyati. Empatiya samarali muloqot va o’quv jarayonidagi muvoffaqiyat kaliti hisoblanadi.

3. Motivatsiya-Muloqot jarayonida o’qituvchi o’quvchilarni o’qishga qiziqtirish va ularning faol ishtirokini ta’minlash uchun turli psixologik usullardan foydalanadi.

Bu motivatsiya o‘quv jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Psixologik to‘siqlarni engish-Muloqotda shubha, qo‘rquv, o‘zini past baholash kabi psixologik to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi bu to‘siqlarni yengish uchun hurmatli, qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli munosabatni yaratishi lozim.

5. Shaxslararo munosabatlar-Pedagogik muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Bunda psixologik jipslik, ishonch va hamkorlik aloqalari muhim. O‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham pedagogik muloqotning bir qismi hisoblanadi.

6. Individual yondashuv-Har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim. Pedagog o‘quvchilarning yoshi, qobiliyati va temperamentiga qarab muloqot strategiyasini tanlaydi.

7. Refleksiya-Pedagog muloqot jarayonida o‘zining va o‘quvchilarning harakatlarini tahlil qiladi. Refleksiya samaradorlikni oshirish uchun zarur bo‘lib, pedagogning muloqot madaniyatini rivojlantirishda yordam beradi.

8. Ta’sir o‘tkazish va rahbarlik qilish-Pedagogik muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazib, ularni bilim olishga yo‘naltiradi. Bu ta’sir jarayonida o‘qituvchining avtoriteti, muloqot usuli va shaxsiy xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

9. Insonparvarlik tamoyili-Pedagogik muloqot doimo insonparvarlik asosida quriladi. Hurmat, samimiylilik va o‘zaro ishonch munosabatlarni mustahkamlaydi va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Birgalikdagi faoliyat va o‘zaro muloqot jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy fazilatlarini shakllanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bunday munosabatlarni shakllantirishda, o‘quvchilar uchun xos bo‘lgan individual xususiyatlar va yosh davrlari xususiyatlarini e’tiborga olish juda muhim. Chunki har bir shaxsning o‘ziga xosligi (asab sistemasi tipining xususiyatlari, xarakteri, shaxsiy tajribasi, manfaatlari va ehtiyojlarining rivojlanish darajasi) muloqot jarayonining o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Ma’lumki, maktab o‘quvchilarida o‘zining impulsiv ehtiyojlarini mustaqil holda yenga olish, irodasini ishga solgan holda o‘zini tuta olish malakalari yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Bola shaxsi uchun zarur hisoblangan ehtiyojlar uning ko‘z o‘ngida hayotiy mazmun kasb etadi, shodlik va vaqtichog‘liklardan voz kechgisi kelmaydi. Bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi- o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda talim-tarbiya ishlarini samarali tashkil qilishdan iborat. Bolalar jamoasiga samarali ta’sir etadigan omillar, bolalar psixikasi va hissiy kayfiyatini yaxshi tushunish ekanligi yaxshi ma’lum. Zero, buyuk rus pedagogi B.A. Suxomlinskiy ta’kidlaganidek- “O‘qituvchi kasbi-insonning murakkab ruxiy olamiga kirib boradigan odamshunoslik fanidir”. Darhaqiqat, bolaga ishonch bilan munosabatda bo‘ladigan, uning ijobiy sifatlarini payqab, qobiliyatini to‘g‘ri baholay

oladigan mahorati yuksak, psixologik bilimlarni chuqur egallagan o'qituvchigina bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladi. Bu o'rinda o'qituvchining psixoterapevtik vazifasi ikki sohada „o'qituvchi-o'quvchi“ va „jamo-o'quvchi“ o'rtasidagi munosabatlarda ro'yobga chiqariladi. Birinchi sohada o'qituvchi bola bilan bevosita muloqotga kirishib, uning hissiy osoyishtaligini ta'minlaydi, ikkinchisida esa o'qituvchi, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tartibga solib bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi baholash vazifasini bajarganligi sababli uning nuqtai-nazari o'quvchilar uchun emotsional ahamiyatga ega. Bolalar o'qituvchi tomonidan bildiriladigan fikrga juda sezgir bo'ladilar, mutaxassislar bolalarda maktabga kelguniga qadar ham o'qituvchi fikriga ichki yo'nalish mavjudligini ta'kidlaydilar. Kasbiy tajribalarga asoslanib, bolalarda o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishish ehtiyoji mavjudligini ta'kidlash mumkin. Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bolalarning kechinmalari va kayfiyatlari, pedagogik rahbarlikning uslubiga, ya'ni o'qituvchining faoliyat va muloqot jarayonida qanday vositalar va usullardan foydalanishiga bog'liq. Demak, o'qituvchi to'g'risidagi tushunchalar o'quvchilarda ijobiy tomondan shakllanishi ko'proq pedagog muomalasiga, muomalaning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishiga bevosita bog'liq. O'qituvchi o'z farzandiga yoki ukasiga qanday samimiy munosabatda bo'lsa, o'quvchilar bilan ham xuddi shunday muomalada bo'lishi lozim. Bu esa o'quvchilarda o'qituvchi haqidagi ijobiy tushunchalarni shakllanishiga olib keladi. O'quvchining maktabga, o'qishga bo'lgan munosabati ko'pincha o'z o'qituvchisiga hurmati sifatida ifodalanadi. Agar demokratik usulda rahbarlik qiladigan pedagog bolaga nisbatan qanchalik samimiy va mehribonlik bilan ustozlik qilsa, avtoritar uslubda rahbarlik qiladigan o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya jarayonidagi bunday samimiylik butunlay begona hisoblanadi. Bunday o'qituvchilarda o'g'il va qiz bolalarga, ulgurayotgan va ulgurmayotgan o'quvchilarga nisbatan munosabati, demokratik uslubda rahbarlik qilayotgan o'qituvchining munosabatidan tubdan farq qiladi. Avtoritar uslubda muloqot qiladigan o'qituvchi bolaning o'ziga xosligini hisobga olmay, sinf o'quvchilari bilan ish olib boradi. U bola shaxsini baholashni faqat amaliy yondashuv asosida belgilaydi va bu baho o'qituvchining kayfiyatiga va shu lahzadagi bola faoliyatining bevosita natijasiga asoslanadi.

Bolalarda o'qituvchi haqidagi tushunchalarning ijobiy va salbiy tomondan shakllanishi bir necha omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar quyidagilardan iborat:

- Ta'lim-tarbiya samaradorligi, ta'ssurotlarning psixologik belgilari;
- Har bir o'qituvchining yuksak darajadagi mahorati;
- O'qituvchining pedagogik faoliyati;
- O'qituvchining dialektik dunyoqarashi;
- O'qituvchining o'z o'quvchilariga, ularni tushungan holda muomalada bo'lishi;

- O‘quvchi esa o‘z o‘qituvchisini qay tarzda qabul qilishidan iboratdir.

Pedagogik muloqot ta’lim jarayonining markaziy qismi bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatishni ta’minlaydi. Pedagogik muloqotning muvoffaqiyati uning strukturaviy elementlarini chuqur tushunish va to‘g‘ri qo‘llashga bog‘liq. O‘qituvchining pedagogik mahorati, bilim darajasi va kommunikativ qobiliyatlari muloqotning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Yuqorida ta’kidlangan fikr-mulohazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida o‘quvchilar bilan yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik muloqotni tashkil qila olsa ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun qulay imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Pedagogik muloqotning psixologik xususiyatlari o‘quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har bir pedagog muloqotdagi ushbu jihatlarni puxta e’tiborga olishi lozim. Zero, pedagogik muloqot bu- o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratish uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-60.28.01.2022 y.
2. Axmedov A, Sherqo‘ziyeva Z. Pedagogik muloqotning kommunikativ asoslari. O‘zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 2(19),
3. Muradovna E. Ta’limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(1A),

.